

---

## "XOTINQUMI" MAHALLASIDA ASFALTLASH ISHLARI KENG KO'LAMDA BAJARILMOQDA

"Xotinqumi" mahalla fuqarolar yig'inida aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida mahalladagi 6,7 km ichki yo'llarida asfaltlash ishlari olib borilmoqda. Bu ishlar uchun davlat byudjetidan 3 milliard 350 million so'm ajratildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan qurilish, bunyodkorliklar tufayli mahallamizdagi ichki yo'llar ta'mirlanmoqda,-deydi "Xotinqumi" MFY raisi Oybek Rustamov.-Aholi va transport harakatlari uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. So'nggi yillarda yo'l, suv, elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratilayotgani, yechim izlanayotgani barchamizni quvontiryapti.

2023-07-07 18:35:15